IS’HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.35.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

ARTIKOVA TANZILLA ABDUXALILOVNA

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AFTOREFERATI

Namangan - 2026

UO‘K:378.091.3:811.111.37.013

Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по педагогическим наукам

Contents of the abstracts of doctor of philosophy (PhD) on pedagogical sciences

Artikova Tanzilla Abduxalilovna
Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi..... 3

Artikova Tanzilla Abdukhalilovna
Technology for developing the professional preparedness of pre-service English teachers 27

Артикова Танзилла Абдухалиловна
Технология формирования профессиональной подготовки будущих учителей английского языка 50

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 54

IS’HOQXON IBRAT NOMIDAGI NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Ped.35.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

NAMANGAN DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI

ARTIKOVA TANZILLA ABDUXALILOVNA

BO‘LAJAK INGLIZ TILI O‘QITUVCHILARINING KASBIY TAYYORGARLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (ingliz tili)

PEDAGOGIKA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AFTOREFERATI

Namangan - 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/Ped8603 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiya Namangan davlat chet tillari institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, ingliz, rus (rezyume) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.namsifl.uz) va “Ziyonet” Axborot ta’lim portal (www.ziyonet.uz) manzillarida joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Karimov Rivojiddin Gulamjanovich** filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor
Rasmiy opponentlar:	**Qurbonov Jasur Akmaljonovich** pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
	Giyasova Umida Erkinovna pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Andijon davlat chet tillari instituti**

Dissertatsiya himoyasi Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Ped.35.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil “12” noyabr kuni soat 15^{00}dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, “Orzu” MFY, Yoshlik ko‘chasi,100a-uy. Tel.: +99869-442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz)

Dissertatsiya bilan Namangan davlat chet tillari instituti Axborot resurs markazida tanishish mumkin (172 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: Namangan viloyati, Namangan shahri, Davlatobod tumani, “Orzu” MFY, Yoshlik ko‘chasi, 100a-uy.Tel.: +99869-442-11-67, e-mail: info@namsifl.uz / namchi-1@exat.uz)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil “30” oktyabr kuni tarqatildi.
(2026-yil “30” oktyabr dagi 19 raqamli reyestr bayonnomasi).

M.M. Yakubbayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, ped.f.d. (DSc), professor.

A.V.Ermirzayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, ped.f.d. (DSc), professor.

S.A.Misirov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi ped.f.d. (DSc), professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Jahonda globallashuv va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi xalqaro ta’lim maydonidagi integratsiya jarayoni xorijiy til o‘qituvchilari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Xususan, global til sifatida ingliz tili o‘z nufuzini mustahkamlab borar ekan, ingliz tilini o‘qitish (English language teaching) jarayonini samarali tashkil etish va metodik yondashuvlarning takomillashuvi dolzarb masalaga aylanmoqda. Shu bois, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi til kompetensiyasi, metodik tayyorgarlik, pedagogik-psixologik tayyorgarlik, axborot-kommunikatsion ko‘nikmalar hamda refleksiya komponentlari asosida kompleks va tizimli tarzda shakllantirilishi zarur. Zero, refleksiya bo‘lajak o‘qituvchiga o‘z pedagogik tajribasini obyektiv baholash, yutuq va kamchiliklarini anglash hamda nazariy bilimlarni amaliy ko‘nikmalarga transformatsiya qilish orqali o‘qituvchining metakognitiv salohiyatini oshirib, uni subyektiv tajribadan ilmiy asoslangan kasbiy mahorat sari yetaklab kelmoqda.

Dunyoda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarini (pre-service English teachers) tayyorlash tajribalarida refleksiv yondashuv ham o‘z ahamiyatini tobora oshirib bormoqda. AQShda TESOL modeliga asoslangan holda, Angliyada CELTA va DELTA kurslari orqali, Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida esa CEFR asosidagi kompetensiyaviy yondashuv vositasida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarini tayyorlash tizimida kommunikativ, madaniyatlararo va refleksiv kompetensiyalarni shakllantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Xususan, global miqyosda e’tirof etilgan ushbu modellar o‘qituvchini shunchaki bilim beruvchi emas, balki o‘z pedagogik faoliyatini muntazam tahlil qilib boruvchi “tadqiqotchi-o‘qituvchi” (teacher-researcher) sifatida tayyorlashni ko‘zda tutadi. Bunday yondashuv bo‘lajak o‘qituvchilarda kasbiy faoliyat natijalarini tanqidiy baholash, mavjud muammolarni aniqlash va ularni mustaqil hal etish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, refleksiv amaliyot pedagogik qarorlarni ongli ravishda qabul qilish, dars jarayonini takomillashtirish hamda bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy rivojlanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekistonda zamonaviy ta’lim islohotlari sharoitida ushbu xalqaro modellarning ilg‘or jihatlarini milliy metodikamizga integratsiya qilish bo‘lajak o‘qituvchilarning raqobatbardoshligini ta’minlashning asosiy omili hisoblanadi va bu borada ko‘plab ishlar olib borilmoqda. 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847 sonli Prezident Farmonida esa oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi doirasida o‘qituvchilarni tayyorlashning innovatsion texnologiyalarga asoslanishi lozimligi ta’kidlab o‘tilgan[1]. Bu esa bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonini zamonaviy talablar asosida yangilash, interaktiv, refleksiv, kompetensiyaviy va kommunikativ yondashuvlarga asoslangan texnologiyalarni joriy qilish zaruriyatini yuzaga keltiradi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018-yil 5-mart kuni Namangan viloyatidagi Is’hoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatiga tashrifi chog‘ida ta’lim

[1]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni,08.10.2019 yildagi PF-5847-son.O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g ‘risida

tizimini tubdan isloh qilish, xorijiy tillarni chuqur o‘rgatish va o‘qituvchilarni zamonaviy metodlar asosida tayyorlash zarurligi alohida ta’kidlandi[2]. Shuningdek, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 sonli Qarorda chet tillarni o‘qitish sifatini oshirish va pedagoglar salohiyatini kuchaytirishga doir chora-tadbirlar belgilanib, innovatsion texnologiyalarni qo‘llash tavsiya etilgan[3]. Ushbu me’yoriy-hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. MDH davlatlarida chet til ta’limida mustaqil ta’limni integratsiyalash orqali amalga oshirish muammolari rus olimlaridan S.Y.Batisheva, I.V.Belyayeva, V.N.Maksimova, M.I.Maxmutov, G.I.Ruzavin[4] lar, kasbiy kompetensiyani shakllantirish bo‘yicha esa L.S.Vygotsky, O.A.Zarubina, I.A.Zimnyaya, V.V.Demina, I.Y.Usacheva, Y.A.Stepashkina, A.K.Suxodoyev[5] lar tomonidan tadqiq etilgan. I.N.Martynova, I.M.Khizhnyak bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda bosqichma-bosqich tayyorgarlik modeli, amaliy mashg‘ulotlar tizimi hamda refleksiv faoliyatning muhim ahamiyatga ega ekanini, Y.Zaxarova[6] o‘z tadqiqotida oliy pedagogik ta’lim tizimida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining metodik ko‘nikmalarini shakllantirishda mikrota’lim texnologiyasining ilmiy asoslari, tarkibi va amaliy natijalarini asoslaydilar.

---

[2] Mirziyoev Sh.M. (2018). nutqi. Is’hoqxon Ibrat nomidagi maktab-internatga tashrifi. Internet manba: http://www.uza.uz/oz/...prezidentimiz-is-o-khon-t-ra-ibrat-mazhm

[3] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5117-son Qarori. “Chet tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2021-yil 19-may.

[4] Батышева С.Я. Учебник для студентов, обучающихся по педагогическим специальностям и направлениям. Издание 3-е, переработанное. – Москва: Из-во ЭГВЕС, 2009. – 456 с.; Беляева И.В., Нестеренко Е.Ю. Иностранный язык в сфере профессиональной коммуникации: комплексные учебные задания: Учебное пособие. – Екатеринбург: УФУ – 132 с.; Максимова В.Н. Меж предметные связи в процессе обучения /Москва: Просвещение, 1988. – 192 с.; Махмутов М.И. Современный урок. Вопросы теории. – Монография. 2-е изд., испр. и доп. – Москва: Педагогика, 1986. – 184 с.; Рузавин Г.И. Концепции современного естествознания: Учебник для вузов. – Москва: ЮНИТИ, 2000. – 287 с.

[5] Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Harvard University Press, 1978.; Зарубина О.А. Развитие профессиональной компетентности экономиста-менеджера в процессе повышения квалификации. – Москва, 2010.; Демина В.В., Усачева И.Ю. Современные тенденции реализации образовательного процесса и формирования компетенций работников компаний // Вестник Московского государственного областного университета, 2020. – No 3. – С. 73-83.; Степашкина Е.А., Суходоев А.К. Исследование профиля надпрофессиональных компетенций, востребованных ведущими работодателями, при приеме на работу студентов и выпускников университетов и молодых специалистов [Электронный ресурс]. Центр компетенций АНО «Россия – страна возможностей». URL: https://nsk forum.ru/upload/iblock/f2b/ve2l2oa2j2y1ymahmq45kmu1ynrmnwnj. pdf?ysclid=lio25abul6365808093 (дата обращения: 30.06.2023).

[6] Мартынова И.Н. Профессиональная подготовка будущих учителей иностранных языков в вузах России и США к иноязычному общению: дис. … канд. пед. наук. — Чебоксары, 2005. — 168 с. Хижняк И.М. Профессиональная подготовка будущих учителей иностранного языка на основе использования технологий медиаобразования: дис. … канд. пед. наук. — Москва, 2010. — 182 с. Y.Zaharova(2023) Формирование у будущих учителей иностранного языка методических умений на основе микрообучения

Xorijiy olimlardan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilariningkasbiy tayyorgarligini rivojlantirish masalasi haqida A.Burns, D.Friman, J. Richards, S.Borg, D.Nunan refleksiv va amaliy tadqiqotga asoslangan yondashuvni ilgari surgan bo‘lsalar, T.Farrell esa refleksiv kundaliklar va jamoaviy tahlil asosida kasbiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlaydi. H.Reinders o‘qituvchining mustaqilligi va tashabbuskorligini kuchaytirishga urg‘u beradi, M.Smiz [7] esa kasbiy tayyorgarlikda ijtimoiy ong, tenglik va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga undaydi. Mamlakatimizda kasbiy kompetensiyani chet tillar bilan uyg‘un holda takomillashtirish nazariyasi, uning ayrim muammolari, kasbiy faoliyatni tashkil etish masalalari, filologiya va tillarni o‘qitish metodikasi bo‘yicha T.K.Sattarov, J.Jalolov, G.T.Mahkamova, A.L.Mamatkulov[8] , ta’lim tizimida chet tillarni, xususan ingliz tilini o‘qitish metodikasini rivojlantirish, ta’lim sifati va samaradorligini oshirish, bo‘lajak chet til o‘qituvchilarini professional ta’limga tayyorlash masalalari bo‘yicha esa D.Aloudinova, M.X.Gulyamova, D.M.Abdullayeva, N.M.Ahmedova, D.N.Baxriddinova, Sh.B.Shabonova, G.F.Ismoilovalarning[9] ishlari bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining tayyorgarligi, zamonaviy metodikalarning tadbiqi va lingvodidaktik tamoyillarni shakllantirishga bag‘ishlangan bo‘lib, ular til o‘rgatishda kommunikativ va kompetensiyaviy yondashuvlarning afzalliklarini ilmiy asoslaganlar. Bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagogik amaliyoti haqida M. Quronov milliy tarbiya imkoniyatlaridan amaliyotda foydalanish, M. Djuraboyev bo‘lajak o‘qituvchilar amaliyotining dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish haqida, J.Nurillayev talabalar pedagogik amaliyotini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borganlar[10].

[7]Anne Burns Collaborative Action Research for English Language Teachers (2009) D.Freeman: Doing Teacher Research (2003); Jack C. Richards Competence and Performance in Language Teaching (2011), Reflective Teaching (1994); Borg, S. (2010). Teacher research for professional development. ELT Journal, 64(4), 436–444; Nunan, D. (2004). Task-Based Language Teaching. Cambridge University Press; Cochran-Smith, M. & Lytle, S. (2009). Inquiry as Stance: Practitioner Research for the Next Generation. Teachers College Press.; Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching (4th ed.). Longman.; Reinders, H. (2011). Teacher Autonomy and Learner Support. In Innovation in Language Learning and Teaching, 5(1), 25–35.

[8]Sattarov T.K. Bo‘lajak chet tili o‘qituvchisining uslubiy omilkorligini shakllantirish texnologiyasi. – Toshkent, 2003. – B. 32–47.; Jalolov J. Chet til o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2012. – 430 b.; Махкамова Г.Т. Идея прогрессивизма в обучении языку специальности. – Ташкент, 2021.; Маматкулов А. Социолингвистические особенности языка и социально-культурное объяснение феномена языковая толерантность //Иностранная филология: язык, литература, образование. – 2016. – Т. 1. – №. 4. – С. 67-70.

[9]Aloudinova.D.Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining og‘zaki nutq malakalarini rivojlantirish metodikasi (chirchiq 2023 yil) disser; Gulyamova M.X. Ingliz tilini o‘qitishda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilar kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga integrativ yondashuv. Avtoref. dissert PhD-T:2019; Abdullayeva.D.M.Bo‘lajak ingliz tili o ‘qituvchilaming kasbiy leksik kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish. Ped.fan.ilmiy darajasini olish uchun diss. T., 2025. - 89-bet.; Ahmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo‘lajak o ‘qituvchilami kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: diss... PhD T:.2020. - 165 b; Baxriddinova D.N. Bo‘lajak chet til o ‘qituvchilarining kognitiv mobilligini rivojlantirish metodikasi. Ped.fan.ilmiy darajasini olish uchun diss. T.,2025; Sh.B.Shabonova (2025) dissert. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining hissiy barqarorligini shakllantirishning metodik imkoniyatlari,BuxDU; G.F.Ismoilova.(2025):disser Talabalarda mustaqil ta’lim orqali kasbiy kompetensiyani shakllantirish metodikasi, BuxDU

[10]Quronov.M DSc dissertatsiya: “O‘zbekiston umumiy o‘rta ta’lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari” (1998);M.Djo’raboyev Bo’lajak o’qituvchilar pedagogik amaliyotining dasturiy-metodik ta’minotini takomillashtirish ("Pedagogika. Tarbiya fani o’qituvchisi" ta’lim yo’nalishi misolida) dissert 2025; J.Nurillayev Talabalar pedagogik amaliyotini tashkil etishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish samaradorligi: diss 2022

Ushbu olimlarning yondashuvlari zamonaviy ta’lim tizimida bo‘lajak chet til o‘qituvchilarini tayyorlashda refleksiya, kompetensiyaviy yondashuv, ijodkorlik, texnologik tayyorgarlik va ijtimoiy mas’uliyatni uyg‘unlashtirish muhimligini ko‘rsatadi. Biroq, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini malakaviy amaliyot jarayonida rivojlantirishga qaratilgan tadqiqot ishlari yetarlicha mavjud emas. Ushbu dissertatsiya ishi ushbu jihati bilan farqlanadi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Namangan davlat chet tillari institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “Tilshunoslik, adabiyotshunoslik, tarjimashunoslik va chet tillar o‘qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi ilmiy yo‘nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishga oid taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

malakaviy amaliyot jarayonida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda retrospektiv va transformatsion refleksiya turlarining o‘zaro to‘ldiruvchanligiga asoslangan refleksiv mashqlar tizimini “Chet tillarni o‘qitishning integrallashgan kursi” (ChTO‘IK) fani modullariga integratsiyalash orqali ishlab chiqish;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining malakaviy amaliyoti mazmunini refleksiv yondashuvning kognitiv, operatsion-amaliy va refleksiv-aksiologik komponentlari integratsiyasiga tayangan “Amaliyot uchburchagi” (talaba — universitet mentori — maktab mentori) triadik mentorlik modeli asosida takomillashtirish;

mikrota’lim, refleksiv kundalik, jamoaviy (kollektiv) va video refleksiya vositalari hamda FIAC va SWOT tahlillarini ChTO‘IK fani topshiriqlari bilan metodik uyg‘unlashtirish orqali kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish texnologiyasini takomillashtirish;

refleksiv-amaliy texnologiyaning samaradorligini kriterial-diagnostik apparat doirasida amaliy topshiriqlardan diagnostik vosita sifatida foydalanish hamda nazorat va tajriba guruhlari natijalarini qiyosiy tahlil qilish orqali aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini refleksiv yondashuv asosida rivojlantirish jarayoni olingan bo‘lib, Namangan davlat chet tillari instituti, Qo‘qon davlat universiteti, Guliston davlat universiteti bakaravriat bosqichi talabalarining 508 nafari ishtirok etgan.

Tadqiqotning predmetini bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda refleksiv yondashuvning shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari: tadqiqot jarayonida ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, ilmiy-metodik manbalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish, sotsiometrik vositalar (anketa, test, so‘rovnomalar, suhbat); bevosita va bilvosita pedagogik kuzatuv; pedagogik tajriba-sinov natijalarini matematik-statistik qayta ishlash, tahlil qilish va umumlashtirish kabi usullardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

amaliyot jarayonida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish maqsadida “Retrospektiv-tahliliy va Prospektiv-transformatsion” refleksiv mashqlar tizimi ishlab chiqilib, ushbu tizimda CHTO‘IK fanining til o‘qitish metodlari, tadqiqot olib borish va darsni rejalashtirish mavzulari refleksiv mashqlar mazmuniga integratsiyalashgan holda o‘tgan metodik faoliyatni tahlil qilish (retrospektiv) va kelajakdagi metodik qarorlarni ongli rejalashtirish (prospektiv-transformatsion) ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi yaxlit tizim sifatida ilmiy asoslab berilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining malakaviy amaliyoti mazmuni refleksiv yondashuvning kognitiv, operatsion-amaliy va refleksiv-aksiologik komponentlarining o‘zaro integratsiyasi “Amaliyot uchburchagi” asosida takomillashtirilgan; bunda CHTO‘IK fanidagi “Teacher as researcher” (o‘qituvchi-tadqiqotchi) va “Teacher as practitioner” (o‘qituvchi-amaliyotchi) yo‘nalishlari mazkur yondashuvning operatsion-amaliy va refleksiv-aksiologik komponentlari bilan mazmunan mos kelishi ilmiy aniqlashtirilgan;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida mikrota’lim, refleksiv kundalik, jamoaviy refleksiya, video-refleksiya texnologiyalari va SWOT, FIAC tahlillarini o‘z ichiga olgan metodik ta’minot ishlab chiqilgan hamda ushbu ta’minotning har bir komponenti CHTO‘IK fanidagi tegishli amaliy topshiriqlar - mikrota’lim hisoboti, portfolio, refleksiv kundalik va muammoga asoslangan topshiriqlar bilan metodik uyg‘unligi ta’minlanib, kasbiy tayyorgarlikning tizimli rivojlanishiga xizmat qilishi eksperimental tarzda isbotlangan;

chet tillarini o‘qitishning integralashgan kursi fanining tadqiqot metodlari va dars loyihalash modullari bilan refleksiv-amaliy topshiriqlarni uzviy integratsiyasini ta’minlovchi amaliyot-refleksiya-transformatsiya tizimi samaradorligi aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

xorijiy til va adabiyoti (ingliz tili) yo‘nalishidagi bakalavriat bosqichi talabalarining malakaviy amaliyot jarayoni uchun “Pre-service teacher practicum guidebook” nomli o‘quv qo‘llanma yaratildi;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasini malakaviy amaliyot jarayonida takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqildi;

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda refleksiv ko‘nikmalarni baholashning mezonlari aniqlandi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi mazkur muammoga refleksiv yondashuv asosida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishni malakaviy amaliyot jarayonida hamda ta’lim sohasidagi respublikamiz, xorijiy olimlar, tadqiqotchilar hamda amaliyotchi pedagoglarning ishlariga asoslanganligi tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini to‘ldirib boruvchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilganligi; tahlil va tadqiqot tavsifning miqdor, sifat jihatidan ta’minlanganligi; tajriba-sinov ishlarining reprezentativligi hamda olingan natijalarning matematik-statistik tahlil yordamida qayta ishlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. **Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati** bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning tashkiliy tuzilmasi, o‘ziga xos xususiyatlari, funksiyalari, jihatlari, strategiyalari, malakali mahalliy va xorijlik o‘qituvchilar tajribasiga asoslanganligi, tadqiqot vazifalariga mos keluvchi, o‘zaro bir-birini mustahkamlovchi tadqiqot metodlarining qo‘llanilganligi, tajriba-sinov ishi natijalarining matematik-statistik usullari bilan asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda refleksiv ko‘nikmalarni rivojlantirishning metodik ta’minoti, texnologiyalari, metodlari, shakllari, vositalari ishlab chiqilgan texnologiyadan oliy ta’lim muassasalari dastur, darslik, o‘quv qo‘llanmalar yaratishda foydalanish, xorijiy til o‘quv sillabusi mazmuni, baholash kontentini ishlab chiqishda tadqiqotning natijalaridan foydalanilgani, baholash reytingi, tadqiqotning natijalari asosida shakllanganligi, bakalavriat bosqichi talabalari uchun dars ishlanmalari ishlab chiqilganligi bilan izohlandi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: “Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi” mavzusida olib borilgan tadqiqot natijalaridan:

amaliyot jarayonida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish maqsadida “Retrospektiv-tahliliy va Prospektiv-transformatsion” refleksiv mashqlar tizimi ishlab chiqilib, ushbu tizimda CHTO‘IK fanining til o‘qitish metodlari, tadqiqot olib borish va darsni rejalashtirish mavzulari refleksiv mashqlar mazmuniga integratsiyalashgan holda o‘tgan metodik faoliyatni tahlil qilish (retrospektiv) va kelajakdagi metodik qarorlarni ongli rejalashtirish (prospektiv-transformatsion) ko‘nikmalarini bosqichma-bosqich shakllantirishga xizmat qiluvchi yaxlit tizim sifatida ilmiy asoslab berilganligiga oid takliflardan “Erasmus+ Programme Mobility with the third countries not associated with the program” loyihasi doirasida foydalanilgan. (Is’hoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat chet tillari instituti 2026-yil 3-apreldagi 0018 raqamli ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi rivojlantirilgan.

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish maqsadida mikrota’lim, refleksiv kundalik, jamoaviy refleksiya, video-refleksiya texnologiyalari va SWOT, FIAC tahlillarini o‘z ichiga olgan metodik ta’minot ishlab chiqilgan hamda ushbu ta’minotning har bir komponenti CHTO‘IK fanidagi tegishli amaliy topshiriqlar - mikrota’lim hisoboti, portfolio, refleksiv kundalik va muammoga asoslangan topshiriqlar bilan metodik uyg‘unligi ta’minlanib, kasbiy tayyorgarlikning tizimli rivojlanishiga oid taklif va tavsiyalar “Pre-service teacher practicum guidebook” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan. (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 22-yanvardagi № 9567-4869-71da-0182-ca11-1510-5840 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining malakaviy amaliyot jarayonida kasbiy tayyorgarligini takomillashtirilgan.

chet tillarini o‘qitishning integralashgan kursi fanining tadqiqot metodlari va

dars loyihalash modullari bilan refleksiv-amaliy topshiriqlarni uzviy integratsiyasini ta’minlovchi amaliyot-refleksiya-transformatsiya tizimi samaradorligi bo‘yicha aniqlangan taklif va tavsiyalar “Pre-service teacher practicum guidebook” nomli o‘quv qo‘llanma mazmuniga singdirilgan. (Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil 22-yanvardagi № 9567-4869-71da-0182-ca11-1510-5840 raqamli nashr ruxsatnomasi). Natijada, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining malakaviy amaliyot va kasbiy tayyorgarlik uzviy integratsiyasini ta’minlangan.

bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini malakaviy amaliyot jarayonida kognitiv, operatsion-amaliy va refleksiv-aksiologik komponentlarining o‘zaro integratsiyasi “Amaliyot uchburchagi” nomli tizimini amaliyotga tatbiq etishga oid taklif va tavsiyalardan “O‘zbekiston” teleradiokanali tomonidan tayyorlangan “Ta’lim va taraqqiyot”, “Millat va ma’naviyat” nomli dasturlar senariysini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston Milliy Teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasining 2026-yil 3-martdagi 05-09-343-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyasi ommalashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 4 ta xalqaro, 2 ta respublika miqyosida ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 14 ta ilmiy-metodik ishlar, shu jumladan, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 6 ta maqola, shundan 3 ta respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning asosiy matni 129 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy-metodik tayyorgarligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy masalalari”** nomli birinchi bobida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari tayyorlash tizimining xalqaro va milliy rivojlanish tendensiyalari, zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar hamda kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirishning nazariy asoslari tahlil qilindi. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ingliz tili o‘qituvchilarini tayyorlash jarayonida xalqaro tashkilotlar (IATEFL, TESOL) faoliyati, shuningdek, O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan PRESETT kabi dasturlar muhim metodik va institutsional asos bo‘lib xizmat qilmoqda. Bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda nazariya va amaliyot integratsiyasi, refleksiv yondashuv, pedagogik kontent bilimlari, ikkinchi tilni o‘zlashtirish nazariyalari hamda sotsiomadaniy omillarning uyg‘unligi ustuvor ahamiyat kasb etadi.

Mavjud adabiyotlardagi ma’lumotlarni o‘rganish natijasida kasbiy tayyorgarlik va uning komponentlari haqida yuritilgan fikrlarni jamlab, quyidagicha izohlaymiz:

Kasbiy tayyorgarlik — bu bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy faoliyatga tayyor bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan nazariy (kognitiv) bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, metodik yondashuvlar, shaxsiy va kommunikativ sifatlarningshakllanishidir. Kasbiy tayyorgarlik quyidagilarni o‘z ichiga oladi: 1-jadvalga qarang.

1-jadval.

Kasbiy tayyorgarlik komponentlari

1. Til materiallari va nutq faoliyat turlari	grammatika, fonetika, leksika, nutq ko‘nikmalari (tinglash,o‘qish, yozish, gapirish)
2. Metodik tayyorgarlik	til o‘rgatish usullari, dars rejasi tuzish, baholash
3. Pedagogik-psixologik tayyorgarlik	o‘quvchini ruhiy holatini tushunish, uning qiziqishi (motivatsiya)ni inobatga olish
4. Axborot-kommunikatsion ko‘nikmalar	raqamli vositalardan foydalana olish
5. Madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari	boshqa madaniyat vakillari bilan muloqot qilishga tayyorlik
6. Refleksiya	o‘z faoliyatini tahlil qilish, xatolardan o‘rganish

Mavjud adabiyotlarda bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish bo‘yicha bir qancha ta’lim modellari tahlil qilinib, bo‘lajak kadrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlash metodlari chuqur o‘rganilgan. Ushbu modellardan: Ilmiy-amaliy fan modeli (Applied science model), Kraft modeli (Craft model) va Refleksiv modeli [11] (Reflective model) eng keng tarqalib kelgan modellar turi hisoblanadi (1-rasmga qarang).



1-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash modellari

Ilmiy-amaliy fan modeliga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilar ta’limga obyektiv yondashishlari kerak. Professional o‘qituvchilarni tayyorlash uchun ularga ilmiy tadqiqotlarga asoslangan nazariyalar o‘rgatilishi kerak, bu nazariyalar o‘z sohasining yetuk mutaxassislari tomonidan o‘rgatishi lozim deb ta’kidlanadi. Bunday ta’limning maqsadi bo‘lajak o‘qituvchilarga o‘rgangan nazariyalarni amaliyotda qo‘llash uchun yetarli ko‘nikmalarni rivojlantirishdir.

Kraft modeli esa yetuk va malakali o‘qituvchilarni tayyorlash uchun ilk faoliyatni boshlagan o‘qituvchilar tajribali yoki “mutaxassis” o‘qituvchilar bilan hamkorlikda ishlashi kerakligini ta’kidlaydi. Ushbu nazariyada yosh o‘qituvchilar tajribali o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlarini kuzatishi, fikr almashishi va amaliyot jarayoni orqali kasbiy ko‘nikmalarini rivojlantirish mumkinligi ta’kidlangan.

Refleksiv modelda metodistlar fikriga ko‘ra, bo‘lajak o‘qituvchilar o‘z tajribalarini, mashg‘ulotlarini va amaliyotlarini tahlil qilish orqali kasbiy mahoratlarini rivojlantirishlari mumkinligi ta‘kidlangan.

[11]Noura Muteb N.Albadrani , Saudi EFL Pre-service Teachers’ Perceptions Regarding the Design of the Diploma of Education Programme The University of Exeter March 2018(dissert 5) p41-42

Ushbu uchta (Ilmiy-amaliy fan, Kraft va Refleksiv) modellar bo‘lajak o‘qituvchilarni kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, pedagog xodimlarni tayyorlash dasturlarida o‘z aksini topdi (2-jadvalga qarang).

2-jadval.

Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash modellarining taqqoslovchi jadvali

Mezon	Ilmiy-amaliy fan modeli	Kraft modeli	Refleksiv modeli
Asosiy g‘oya	Nazariy bilimdan amaliyotga o‘tish	Tajribali o‘qituvchidan o‘rganish	Tajriba asosida fikrlash va o‘z ustida ishlash
Yondashuv	Ilmiy-nazariy	Amaliy va ustoz-shogird asosida	Tahliliy, refleksiv va ijodiy
Tayyorlov jarayoni bosqichlari	Nazariya Amaliyot Mustahkamlash	Kuzatish Takror O‘rganish	Tajriba Tahlil, Nazariya Qayta qo‘llash
O‘qituvchining o‘rni	Bilim beruvchi	Namuna ko‘rsatuvchi ustoz	Reflektor, kuzatuvchi va tahlil qiluvchi
Talabaning o‘rni	Bilim oluvchi	Shogird	Faol ishtirokchi va tahlil qiluvchi
Afzalliklari	Nazariy asoslar kuchli	Amaliy ko‘nikma tez shakllanadi	Mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatga moslashuv
Kamchiliklari	Amaliyotda qo‘llash kech boshlanadi	Nazariy bilim yetarli darajada emas	Har kimda refleksiya qilish qobiliyati bo‘lmasligi mumkin

Tadqiqotlar tahliliga asoslanib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari tayyorlash dasturlarining mazmunini quyidagicha belgilaymiz (2-rasmga qarang).



2-rasm. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilari tayyorlash dasturlarining mazmuni

E.A.Zaharova o‘z tadqiqotida mikrota’limni an’anaviy qo‘llash sxemasining quyidagi bosqichlarini sanab o‘tadi:

1. Taqdimot bosqichi bunda shakllantirilayotgan ko‘nikma talabalarga tanishtiriladi va namunaviy tarzda namoyish etiladi.

2. Amaliy mashq yoki “o‘rgatish” bosqichi bunda o‘qituvchi-amaliyotchilar mazkur ko‘nikmani mikrota’lim shaklida amalda qo‘llab ko‘rishga urinadilar.

3. Tanqidiy tahlil bosqichi bunda o‘quvchi va uning murabbiyi dars jarayonining videoyozuvini birgalikda ko‘rib chiqib, amaliyotchi o‘qituvchining faoliyatini muhokama qiladilar.

4. Qayta o‘qitish yoki “qayta mashq” bosqichi bunda tayyorgarlikdan o‘tayotgan o‘qituvchilar o‘rganilayotgan ko‘nikmani yana bir bor qo‘llab ko‘radilar.

5. Qayta tahlil qilishda esa o‘z faoliyati natijalarini yana tahlil qilish imkoniyatiga ega bo‘ladilar (3-rasmga qarang).



3 -rasm. Bosqichli mikrota’lim o‘tkazish sxemasi

T.Farrell taklif qilganidek, faqatgina bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash dasturlari (Pre-service teacher education) ni emas, balki “Yangicha ta’lim tizimi” (Novice-service) dasturlarini ham o‘ylash lozim deb ta’kidlaydi. Bu tizim yosh o‘qituvchilar (Novice Qualified Teachers) uchun bir “kasbiy rivojlanish” davrini o‘z ichiga oladi. “Yangicha ta’lim tizimi” dasturi ikkinchi til o‘qituvchilarini tayyorlash dasturlari (Second Language Teacher Education) dan boshlanib, o‘ziga xos ijtimoiy-madaniy sharoitlarda haqiqiy sinf xonalarida vujudga kelayotgan vaziyatlar, tanqidiy fikr beradigan sohaga endigina kirib kelib, o‘zining fikr-mulohazasiga ega bo‘lgan dastlabki o‘qituvchilik faoliyatini yuritayotgan pedagoglar (First year teaching) bilan bog‘liqdir. Bu jarayon hatto yangi pedagoglarga o‘z faoliyatini olib borayotgan (in-service) o‘qituvchilar bilan bog‘lanib, ular duch kelgan muammolar, qiyinchiliklar bilan tanishishga hamda ularni qay yo‘sinda hal qilayotgani haqida yaqindan suhbat olib borish imkonini beradi. Quyida bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning yangicha ta’lim tizimi (Novice-Service Teacher Education)ning shakli ko‘rsatilgan (4-rasmga qarang).



4-rasm. Bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashning yangicha ta’lim tizimi

Ushbu modelga ko‘ra, yangi faoliyat yuritayotgan o‘qituvchilarni tayyorlash (Novice-Service Teacher Education) tizimi bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash ta’limi (Pre-service Teacher Education) dasturining tajribalari va o‘qituvchilikning dastlabki yillari (First-year teaching) shuningdek, ko‘p yillik tajribaga ega hamda faoliyat yuritayotgan pedagoglar (in-service teachers) o‘rtasida ko‘prik bosqichi sifatida xizmat qiladi. Bunda barcha o‘qituvchilarning faoliyatlari muhokama qilinadi va yangi tizim ushbu takliflar va fikrlar asosida yangi o‘zgarishlar, tuzatishlar kiritadi.

“**Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik tizimi**” bobida malakaviy amaliyotni ingliz tili o‘qitish metodikasiga asoslangan kasbiy tayyorgarlik tizimiga integratsiyalashning metodik mexanizmi, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining Chet tillarni o‘qitishning integrallashgan kursi (CHTO‘IK) fanini o‘zlashtirish jarayonidagi kasbiy rivojlanish holati, empirik tahlil va metodik kamchiliklar, Chet tillarni o‘qitishning integrallashgan kursi (CHTO‘IK) fanini o‘qitishda refleksiv yondashuv asosida kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirish metodikasi va uning eksperimental asosi tahlil qilinib, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda malakaviy amaliyotning didaktik ahamiyati, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda malakaviy amaliyotning hozirgi holati, bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarlik darajasini refleksiv yondashuv asosida takomillashtirish texnologiyasi masalalari yoritilgan.

“O‘qituvchilik amaliyoti bu bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirish bosqichidagi muhim jarayondir. Bu bosqichda talaba-o‘qituvchilar murabbiy yoki hamkor o‘qituvchi rahbarligida kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish va ushbu ko‘nikmalarni namoyon etish imkoniyatiga ega bo‘ladilar[12]”.

“Amaliyot uchburchagi” amaliyot davrida faol ishtirok etuvchi uch asosiy ishtirokchini, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchi, universitet mentori va maktabdagi hamkor o‘qituvchini ko‘zda tutadi. Ingliz tilini o‘qitish metodikasi va bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlashga oid adabiyotlar amaliyot dasturining poydevori sifatida o‘rin tutadi. Bu jarayon o‘qituvchilik ko‘nikmasini rivojlantirishning eng muhim komponentlaridan biri hisoblanadi[13]. Ko‘pgina o‘tkazilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, qachonki nazariy bilimlar amaliyot orqali shaxsiy tajribada o‘zlashtirilgandagina, aktiv faoliyatga aylanadi.

A.Perry va A.Straitonlarning fikricha, o‘qituvchilik amaliyoti bo‘lajak o‘qituvchilarga nazariy bilimlarni qo‘llash, yangi ko‘nikmalarni sinash va fikr-mulohaza olish imkoniyatini yaratadi. M.Koady, K.Harper va E.de Jonglar esa amaliyotni bo‘lajak o‘qituvchilar uchun real sinf xonasida ingliz tilini o‘qitish tajribasini beruvchi noyob imkoniyat deb hisoblashadi. K.Aspden ta’kidicha, amaliyot davomida bo‘lajak o‘qituvchilar o‘qitishni real muhitda sinab ko‘ribgina

[12](Coward, F., Hamman, D., Johnson, L., Lambert, M., Indiatsi, J., & Zhou, L. (2015). Centrality of enactive experiences, framing, and motivation to pre-service teachers’ emerging professional identity. Teaching Education, 26(2), p198

[13](Ferrier-Kerr, 2009; Farrell, 2003; Ralph, Walker & Wimmer, 2007). Ferrier-Kerr, J. L. (2009). Establishing professional relationships in practicum settings. Teaching and Teacher Education, 25(6), 790-797.

qolmay, balki turli ta’limiy yondashuvlarni amaliyotda kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Eng asosiysi, amaliyot bo‘lajak o‘qituvchi va universitet mentoriga bo‘lajak o‘qituvchining ingliz tilini chet til sifatida o‘qitish konteksida ishlay olish salohiyatini aniqlash imkonini beradi. Shu boisdan bo‘lajak o‘qituvchilarning amaliyoti modellarining rivojlanishini ko‘rib chiqish muhim hisoblanadi. Bo‘lajak o‘qituvchilarning malakaviy amaliyoti uchun eng yaxshi modelni aniqlash bo‘yicha qizg‘in bahslar olib borilgan. Bugungi kunga kelib, turli tayyorlov dasturlari tomonidan turlicha modellar qo‘llanilib kelinmoqda. Ulardan:

A) Hamkorlik modeli (The partnership model) ushbu model 1980-yillarning o‘rtalarida Buyuk Britaniyada “Oxford internship scheme” va AQShda “Holmes group” tashabbuslari bilan boshlangan. Bu model universitetlar va maktablar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish orqali nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni bartaraf etishga qaratilgan. Ushbu yondashuv o‘qituvchilarni tayyorlashda nazariy bilimlarni amaliy tajriba bilan uyg‘unlashtirishni maqsad qiladi. Hamkorlikdagi eng dolzarb muammolardan biri maktab o‘qituvchilari bilan bo‘lajak o‘qituvchilarni tayyorlash institutlari mentorlari o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish masalasi kiradi.

S.Lillejord va K.Borte tomonidan olib borilgan tadqiqotda o‘qituvchilarni tayyorlashdagi hamkorlik modellari murakkab va ko‘p manba talab qiluvchi tizimlar sifatida ta’kidlanadi. Ular nazariya va amaliyot o‘rtasidagi tafovutni kamaytirish, mentorlikni qo‘llab-quvvatlash va professional o‘sishni rag‘batlantirishga qaratilgan. Tadqiqotda hamkorlikning muvaffaqiyati uning tuzilishi, vazifalarning aniqligi va ish taqsimoti masalalari bilan bog‘liqligi ta’kidlangan.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, hamkorlik modeli yuzasidan o‘tkazilgan tadqiqotlarda “uch makon” tushunchasiga ko‘p urg‘u berilgan. “Uch makon” tushunchasi talaba-o‘qituvchilar, maktablardagi amaliyot rahbarlari va institut mentorlari o‘rtasidagi hamkorlik imkoniyatlarini ifodalash uchun ishlatiladi. Asosiy g‘oya shuki, hamkorlik modelida ishtirokchilarga neytral makon zarur bo‘lib, bu makonda ular o‘zlarining o‘zaro hamkorlik davomida o‘zlashtirgan bilim va malakalaridan kelib chiqib, birgalikda yangicha tizimlarni muhokama qilishi mumkin.

Eng asosiy maqsad talabalarni ushbu “makonga” taklif qilish bo‘lib, bu yerda akademik bilimlar bilan amaliy tajriba bilimlarini uyg‘unlashtirish va “yangi tushunchalar amaliyotlarda duch kelgan muammolarni hal qilish” ni yaratish ko‘zda tutiladi. Bu jarayonda barcha ishtirokchilar muzokaralarga o‘z munosabatlarini bildirishadi. “Uch makon”da maktabning amaliyot jarayoni institutning akademik muhokamasi imkonini beradi. Bunday uchrashuvlar natijasida ishtirokchilar o‘z faoliyatlarining haqiqiy-real vaziyatda duch kelgan qiyinchiliklar, muammolarini muhokama qiladilar va natijada amaliyot samarali shakllantiriladi. Biroq, bunday jarayonlar rahbarsiz muvaffaqiyatga erisha olmaydi. Asosiy muammo shundaki, uch makonda ishlab chiqilgan bilimlarni qanday qilib ishtirokchi ta’lim muassasalarda qo‘llash va talabalar o‘qishini yanada rivojlantirishda foydalanishni ta’minlash kerakligi noaniqligicha qolmoqda (5-rasmga qarang).

Triada modeli (maktab mentori - amaliyot rahbari - talaba) muammolarni hal qilish uchun mo‘ljallangan bo‘lsa-da, amalda u ko‘pincha turli xil ziddiyatlarga olib keladi. Ko‘plab tadqiqotlar institut amaliyot rahbari va mentor o‘rtasidagi kelishmovchiliklar haqida ta’kidlab o‘tadi, bu holatda talaba istamagan holda keskin bahslarga guvoh bo‘ladi. Ta’limiy muhokamalarda insonlar doimo nimanidir o‘rganadi, biroq bu o‘rganish jarayonlari ba’zida samarali yoki samarasiz, hattoki aksincha ta’sir qiluvchi (kontrproduktiv) bo‘lishi mumkin[14].



5-rasm. Bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda hamkorlik uchun “uch makon”

B) Tizimli nazorat modeli (The clinical supervision model) M.Kogan tomonidan 1960-yillarda ishlab chiqilgan bo‘lib, u ushbu modelning asoschisi sifatida tan olingan, M.Kogan Garvard universiteti professori bo‘lib, tizimli nazorat modelini o‘qituvchilarning malakasini oshirish va kasbiy rivojlanishini tizimli ravishda qo‘llab-quvvatlash maqsadida ishlab chiqqan. Ushbu model o‘qituvchi va rahbar (odatda tajribali ustoz yoki murabbiy) o‘rtasidagi hamkorlikka asoslangan, bosqichli kuzatuv jarayoniga asoslanadi. Bu modelga bunday nom berilishining sababi, amaliyot jarayoni mukammal kuzatiladi, muammolar aniqlanadi va yechim beriladi. Modelning asosiy maqsadi ta’lim jarayonini tahlil qilish, aks ettirish va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishdan iborat. Keyinchalik R.Goldhammer, R.Anderson va T.Sergiovanni kabi olimlar bu modelni rivojlantirib kengaytirishgan, biroq M.Kogan uning asoschisi sifatida tan olinadi.

B.Rosleny, S.Agustan ham o‘qituvchilarning metodik mahoratini oshirish, o‘quv sifatini yaxshilashda tizimli nazorat modelini taklif qiladi. Ushbu tadqiqotda berilishicha, tizimli nazorat o‘qituvchining metodik faoliyatini tizimli va tahliliy ravishda baholash, uning yutuq va kamchiliklarin aniqlash, shu asosda maslahat va yo‘l-yo‘riq berish orqali ta’lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan yondashuvdir. Bu model oddiy nazoratdan farqli o‘laroq, o‘qituvchining darsga tayyorgarligi, o‘quv metodlari va refleksiv ko‘nikmani rivojlantirishni maqsad qiladi. Tadqiqotning bosh maqsadi o‘rta maktablarda o‘qituvchilar tomonidan olib borilayotgan o‘quv jarayonining sifatini oshirish uchun tizimli kuzatuv modelini joriy etish orqali ularning kasbiy tayyorgarligini kuchaytirishdan iborat. Ushbu

[14]Lillejord, S., and O. Dysthe. 2008. “Productive Learning Practice – A Theoretical Discussion Based on Two Cases.” Journal of Education and Work 21 (1): 75–89. doi:10.1080/13639080801957154.

model yordamida o‘qituvchilarga o‘z faoliyatini tahlil qilish, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish ko‘nikmalarini rivojlantirish imkoniyati beriladi.

C)Uztoz-shogird modeli (The apprenticeship model)da nazariya va amaliyotni uyg‘unlashtirishga urg‘u beriladi. J. Koffman va P. Patterson fikricha, har bir bo‘lajak o‘qituvchi amaliyot dasturini o‘tashi kerak bo‘lib, bu ularni birinchi kundan boshlab kasbiy faoliyatga tayyorlaydi. Dastur doirasida hamkor maktab o‘qituvchilari o‘qituvchini kuzatib boradi va ular bilan hamkorlikda nazariya-amaliyot bog‘liqligini mustahkamlaydi.

Zamonaviy ta’limda bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi shunchaki nazariy bilimlarni egallash emas, balki ularni amaliyotda qo‘llay olish, tahlil qilish va o‘zini kasbiy yetuk shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan refleksiv yondashuvlar asosida tashkil etilishi lozim. Shu maqsadda tadqiqotimiz jarayonida ishlab chiqilgan namunaviy malakaviy amaliyot dasturimiz mavjud nazariy refleksiya modellarining afzalliklarini jamlagan, bosqichma-bosqich kasbiy rivojlanishni ta’minlovchi, real amaliyotga asoslangan bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining refleksiv-kreativligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan texnologiya hisoblanadi. Mazkur texnologiya o‘zining nazariy asoslarini J. Devey, D. Kolb, J. Mun, N. Frolova, T. Farrell kabi yetuk tadqiqotchilarning refleksiya haqidagi ilmiy qarashlaridan olingan bo‘lib, malakaviy amaliyot jarayonida bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini refleksiv kreativlik, kasbiy ong, uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD) tamoyillari asosida takomillashtirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda nazariya, amaliyot va refleksiya o‘zaro uzviy integratsiyalashgan. Texnologiyaning ilmiy yangiligi shundan iboratki, u malakaviy amaliyotni oddiy tajriba orttirish jarayoni sifatida emas, balki retrospektiv–tahliliy va prospektiv–transformatsion refleksiya asosida tashkil etilgan “Uzluksiz kasbiy rivojlanish” tizimi sifatida talqin qiladi. Texnologiya malakaviy amaliyotni “Amaliyot uchburchagi” asosida tashkil etib, quyidagi refleksiv yondashuv komponentlarining o‘zaro integratsiyasiga tayangan:

a) kognitiv komponent bu nazariy bilimlarni egallash;

b)operatsion-amaliy komponent esa o‘zlashtirgan bilimlarni amalda qo‘llash, darsni puxta rejalashtirish, o‘tkazish, tahlil qilish va takomillashtirish;

c) refleksiv-aksiologik komponent kasbiy qadriyatlar, mas’uliyat, o‘zini o‘zi baholash va kasbiy tayyorgarlikni rivojlantirishni ifodalaydi.

Mazkur komponentlarning integratsiyasi bo‘lajak ingliz tili o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishda ular o‘zlashtirayotgan fanlar, jumladan CHTO‘IK fanidagi nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlashda hamda malakaviy amaliyotni tizimli va boshqariladigan jarayonga aylantirishga xizmat qiladi. Texnologiyaning ilmiy yangiligi malakaviy amaliyotni refleksiv kreativlikni rivojlantiruvchi, nazariya (CHTO‘IK fani) va amaliyotni integratsiya qiluvchi, uzluksiz kasbiy o‘sishga yo‘naltirilgan tizim sifatida konseptual va amaliy jihatdan asoslab berganligi bilan belgilanadi. Ushbu texnologiya quyidagi bosqichlardan iborat:

1. Amaliyotga tayyorgarlik bosqichi: Kolbning tajriba (concrete experience) va rekleksiv kuzatuv (reflective observation) hamda Frolovaning motivatsion refleksiya bosqichiga mos keladi. Unda talaba-o‘qituvchilar o‘z kasbiy

faoliyatlaridagi yutuq va kamchiliklarini aniqlaydi, dars kuzatuvlari, CHTO‘IK fanida mikrota’lim mashg‘ulotlari orqali dastlabki amaliy tajriba orttiradi. Mazkur bosqichda tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan retrospektiv-tahliliy mashqlar tizimi joriy etilib, talabalar o‘z avvalgi bilim va tajribalarini tahlil qilish, pedagogik xatolarni anglash va kasbiy ehtiyojlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo‘ladi. Refleksiv kundalik va mentor fikr-mulohazalari orqali dastlabki refleksiv ong shakllantiriladi.

